

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### **SOLIQ VA BUDJET SIYOSATINING 2017-YILGA MO'LJALLANGAN ASOSIY YO'NALISHLARI QABUL QILINGANLIGI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 6-dekabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 938-XII-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 9, 338-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 4-5, 126-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 5, 112-modda; 2001-yil, № 5, 89-modda; 2002-yil, № 4-5, 74-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 5, 152-modda; 2007-yil, № 12, 590, 608-moddalar; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2010-yil, № 5, 178-modda, № 9, 334-modda, № 12, 472-modda; 2012-yil, № 1, 4-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 12, 341-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 47-modda birinchi qismining "a" va "b" bandlaridagi "uch oy" degan so'zlar "oltmish kun" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) 63-moddaning **beshinch**i qismidagi "6 oy" degan so'zlar "oltmish kun" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Lizing to'g'risida"gi 756-I-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 5, 108-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 608-modda) 11-moddasi birinchi qismining **beshinch**i xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"lizing oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarining jiddiy ravishda buzilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kelgusi lizing to'lovlarini to'lashni tezlashtirishni yoki lizing obyektini qaytib olgan va zararni undirgan holda shartnomani bekor qilishni talab etish".

**3-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 69-II-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda qabul qilingan O'RQ-328-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 5, 133-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 8, 312-modda, № 12, 452-modda) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 5-moddaning **ikkinchi** qismidagi "(sho'ba)" degan so'z chiqarib tashlansin;

2) **40-moddadagi** "shuningdek faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-yanvardagi O'RQ-601-sonli **Qonuniga** asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son)*

**5-modda.** Ushbu Qonun 2017-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-yanvardagi O'RQ-601-sonli **Qonuniga** asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son)*

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2016-yil 27-dekabr,